

**ZULFIYA NOMIDAGI DAVLAT MUKOFOTI — XOTIN-QIZLAR
MEHNATI VA IQTIDORI UCHUN MUNOSIB E'TIROF**

Farg'ona davlat universiteti

Tarix fakulteti talabasi

Abdukaxorova O'g'iloy Isroiljon qizi

Annotatsiya: Mazkur maqolada Zulfiya nomidagi davlat mukofoti xotin-qizlarning ijtimoiy, madaniy va ilmiy sohalardagi yutuqlarini e'tirof etish va rag'batlantirish vositasi sifatida yoritilgan. Mukofotning ahamiyati, uning yosh avlodni vatanzarvarlik va ijodkorlik ruhida tarbiyalashdagi o'rni ko'rsatib berilgan. Shuningdek, mukofotga sazovor bo'lgan iqtidorli qizlarning erishgan yutuqlari va ular orqali jamiyat rivojiga qo'shayotgan hissasi tahlil qilingan. Ushbu e'tirof jamiyatda ayollarning mavqeini oshirish, ularni qo'llab-quvvatlash va yangi avlod vakillariga ilhom bag'ishlashda muhim ahamiyat kasb etishi ta'kidlangan. Zulfiya nomidagi davlat mukofoti haqida qonun, normalar, uning talablari haqida batafsil ma'lumot berib o'tiladi. Davlatimiz xotin-qizlarning jamiyat hayotining muhim qismi ekanligini anglatib turuvchi muhim kuch ekanligi ushbu maqola orqali e'tirof etiladi.

Kalit so'zlar: xotin-qizlar, adabiyot, san'at, loyiha, tashabbus, bilim, kitobxonlik, teng huquqlilik, ilm-fan

Bugungi kunda O'zbekiston xotin-qizlarining jamiyatdagi o'rni va faolligini oshirish, ularning ilm-fan, san'at, madaniyat va boshqa sohalardagi iste'dodini e'tirof etish davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Zulfiya nomidagi davlat mukofoti aynan shu maqsadlar yo'lida joriy etilgan bo'lib, mamlakatimizda iqtidorli qizlarni qo'llab-quvvatlash, ularning yutuqlarini rag'batlantirish va jamiyatda xotin-qizlarning o'rni yuksalishiga xizmat qilmoqda.

"Nafaqat o'z she'rlari, balki butun hayoti bilan o'zbek ayolining ma'naviy qiyofasini namoyon etgan atoqli shoiramiz Zulfiyaxonimni ham men ana shunday fidoyi insonlar qatoriga qo'shgan bo'lardim. Uning jahon minbarlaridan yangragan she'rlari Sharq ayolining aql-u zakosi, fazl-u kamolining yorqin ifodasi sifatida millionlab she'riyat muxlislariga odamiylik, muhabbat va sadoqatdan saboq bergen, desak, mubolag'a bo'lmaydi. Lekin bu murakkab hayot qalbi o'z xalqi va Vataniga mehr-muhabbat bilan to'lib-toshgan, dunyodan ezgulik va go'zallik izlab yashagan bu ayolni hamma vaqt ham ayagani yo'q. Aslida, bu dunyoda ayriliq va hijron azobi barchaning ham boshida bor. Ammo g'am-anduh va hasratlarni matonat bilan yengib,

tog'dek bardoshi bilan vafo va sadoqat ramziga aylangan Zulfiya opa singari ayollar har qanday yuksak hurmat va ehtiromga munosibdir”¹.

Zulfiya nomidagi davlat mukofoti O'zbekistonning birinchi ayol shoirasi, atoqli adabiyot namoyandasini Zulfiya Isroilova nomiga bag'ishlab tashkil etilgan. Bu mukofot O'zbekiston Prezidenti tomonidan 1999-yil, Zulfiya Isroilovaning 85 yilligi munosabati bilan ta'sis etilgan. Mukofot har yili yurtimizning iqtidorli qizlariga san'at, adabiyot, sport, ilm-fan va ta'lif sohasidagi muvaffaqiyatlari uchun topshiriladi. Zulfiya nomidagi davlat mukofoti – O'zbekiston Respublikasining Davlat mukofotlaridan biri. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining „Zulfiya nomidagi Davlat mukofotini ta'sis etish bo'yicha takliflarni qo'llab-quvvatlash to'g'risida“ 1999-yil 10-iyundagi farmoniga binoan ta'sis qilingan.

“Yurtimizda xotin-qizlarning sifatli ta'lif va tarbiya olishiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Mutafakkir jadid bobomiz Abdurauf Fitrat ta'biri bilan aytganda, „Onalar — butun bashariyatning tarbiyachilaridir“. Darhaqiqat, oilada bir nafar qiz o'qib, oliy ma'lumotga, zamonaviy kasb-hunarga ega bo'lsa, xonadondagi muhit butunlay o'zgaradi. Biz shu maqsadda xotin-qizlar ta'limi qo'llab-quvvatlash bo'yicha muhim dasturni qabul qildik”²

Zulfiya nomidagi davlat mukofotining dolzarbliги bugungi kunda yosh xotin-qizlarni rag'batlantirish, ularda intellektual va ijodiy salohiyatni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Quyida uning dolzarbligini ochib beruvchi asosiy jihatlar keltirган:

- Xotin-qizlar huquqlari va imkoniyatlarini kengaytirish;

Bugungi kunda gender tengligi va xotin-qizlarning ijtimoiy hayotdagi rolini oshirish global dolzarb masalalardan biridir. Zulfiya mukofoti orqali yosh qizlar o'z imkoniyatlarini amalga oshirishda kuchli rag'batga ega bo'ladi. Mukofot nafaqat iste'dodni e'tirof etadi, balki qizlarni ijtimoiy, ilmiy va madaniy sohalarda faol ishtirok etishga undaydi.

- Kelajak liderlarini shakllantirish;

Mukofot yosh iste'dodli qizlarni tanlab, ularni yetakchilik qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Bu dolzarb, chunki bugungi kun jamiyatida xotin-qizlar liderlik lavozimlarida ham faol bo'lishi kerak. Ular nafaqat milliy darajada, balki xalqaro maydonda ham o'z o'rnini topish imkoniyatiga ega bo'ladi.

- Zamonaviy ijtimoiy ehtiyojlarga javob berish;

O'zbekistonda yoshlar va xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalişlaridan biri hisoblanadi. Zulfiya mukofoti shu siyosatning bir qismi sifatida jamiyatning ehtiyojlariga javob beradi. Yoshlar o'rtasida ilm-fan, san'at va

¹ I.A.Karimov. Yuksak ma'naviyat — yengilmas kuch. — T.: «Ma'naviyat», 2010. — 176 b.

² 2023-yil 7-mart.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning xotin-qizlar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdag'i nutqidan

sport kabi sohalarga qiziqishni oshiradi, bu esa mamlakatning umumiy rivojlanishiga hissa qo'shamdi.

— Yosh avlodni milliy qadriyatlarga sadoqatli qilish;

Zulfiya mukofoti o'zbek xalqining madaniy va adabiy merosini qadrlashga undaydi. Bu orqali qizlar milliy qadriyatlarga hurmat va e'tibor bilan qarashni o'rganadi. Mukofot ayol shoir Zulfiya hayoti va ijodini eslash, uning ma'naviy o'gitlarini yoshlar orasida targ'ib qilish vositasi bo'lib xizmat qiladi.

— Ijodiy va ilmiy rivojlanishga rag'bat;

Mukofot yosh avlodning ijodiy va ilmiy salohiyatini oshirish, ularni yangi yutuqlarga ilhomlantirish uchun dolzarbdir. Bu bugungi globallashuv sharoitida O'zbekistonni rivojlantirishga xizmat qiladi. Zamonaviy O'zbekiston sharoitida Zulfiya nomidagi mukofot yosh xotin-qizlar uchun katta ahamiyatga ega bo'lib, ularni kelajakdagi muvaffaqiyatlariga ilhomlantiradi va jamiyatda munosib o'rin topishga yordam beradi.

Jamiyatga bir nazar tashlasak, ilmli, yetuk, salohiyatli, mas'uliyatli xotin-qizlarimiz safi yildan-yilga ko'paymoqda. Buning asosiy sababi ham davlat tomonidan berilayotgan e'tiborda, ishonchda, shart-sharoitlarda, albatta. Zulfiya mukofoti yutuqlar bilan birga, yosh avlodga ulug' maqsadlar sari intilish, o'z salohiyatini kengaytirish va milliy qadriyatlarni asrash ruhini ham singdiradi. Shuningdek, bu mukofot xotin-qizlar o'rtasida teng huquqlilikni ta'minlash va ularga yangi imkoniyatlar yaratishga qaratilgan davlat sa'y-harakatlarining yorqin namunasi hisoblanadi. Mukofotning g'oliblari – yosh avlod uchun namuna desam aslo mubolag'a bo'lmaydi. Har yili Zulfiya mukofotiga munosib topilgan qizlarning hayot yo'li va erishgan yutuqlari ko'pchilik uchun o'rnak bo'ladi. Ularning har biri o'zining mehnatsevarligi, qat'iyati va iqtidorini namoyon qilib, jamiyatda muvaffaqiyat qozonish mumkinligini isbotlaydi. Bu esa nafaqat o'sha shaxs uchun, balki butun jamiyat uchun ilhom manbaidir. Yurtboshimiz tomonidan 2020-yil 7-mart kuni 28 nafar xotin-qizlar Zulfiya nomidagi davlat mukofoti sovrindorlari bo'ldi.

Zulfiya nomidagi davlat mukofoti nafaqat qizlarning ilmiy, madaniy, va ijtimoiy sohalardagi yutuqlarini qadrlash, balki ularni rag'batlantirish va ularning jamiyatdagi o'rni va rolini mustahkamlashga yo'naltirilgan muhim davlat tashabbusidir. Ushbu mukofotning taqdim etilishi qizlarning o'ziga bo'lgan ishonchini oshiradi, ijtimoiy faoliytkni kuchaytiradi va yangi yutuqlar sari intilishlariga turki beradi. Mukofotga sazovor bo'lgan yoshlar ko'pincha o'z sohalarida innovatsion yondashuvlarni kiritib, yangi loyihalarni amalga oshiradilar, bu esa nafaqat ularning shaxsiy rivojlanishiga, balki jamiyatning umumiy taraqqiyotiga ham hissa qo'shamdi. Mukofot o'zining ilmiy, ijodiy va ijtimoiy jihatdan faol qizlarni rag'batlantirishi orqali jamiyatda gender tengligini oshirish, ayollar huquqlarini himoya qilish va ularning bilim va mahoratlarini e'tirof etishga xizmat qiladi. Shuningdek, Zulfiya mukofoti nafaqat

o‘ziga xos rag’batlantirish vositasi, balki jamiyatda ayollarning faol pozitsiyada bo‘lishini rag’batlantirishga qaratilgan strategik tashabbusdir. Bu mukofot orqali iqtidorli qizlar nafaqat o‘z yutuqlarini baholashadi, balki kelajakda yana yangi cho‘qqilarni zabit etishga, o‘z yurtdoshlariga ilhom manbai bo‘lishga tayyorlanadilar. Shuningdek, ushbu mukofotning taqdim etilishi jamiyatning madaniy hayotini boyitish, ilmiy salohiyatni oshirish, sport va san’at sohalarini rivojlantirish, va aholi orasida ilm-fan va madaniyatga bo‘lgan qiziqishni kuchaytirish maqsadida muhim vosita hisoblanadi. Zulfiya nomidagi mukofot, albatta, yosh avlodni ijtimoiy mas’uliyat, estetik tafakkur, va vatanparvarlik kabi muhim qadriyatlar asosida tarbiyalashda o‘zining o‘rni va ahamiyatini yanada mustahkamlamoqda. Mukofot taqdim etilayotgan yosh qizlar nafaqat o‘zlarining shaxsiy rivojlanishlarini, balki jamiyatda qadrlanadigan va e’tirof etiladigan faol ayollarni ko‘rsatish orqali yanada yuqori yutuqlarga erishish imkoniyatiga ega bo‘lishadi. Bu esa, o‘z navbatida, davlat siyosatida ayollar va qizlarni qo‘llab-quvvatlashning nafaqat qarorlar darajasida, balki amaliyotda ham amalga oshirilayotganligini tasdiqlovchi ishonchli vositadir.

Zulfiya mukofoti va unga o‘xshash tashabbuslar orqali, ayollar o‘z mahoratini yanada rivojlantirish, jamiyatda faol va muhim o‘rin egallashga intilishni davom ettiradi, bu esa butun jamiyatning ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyotiga xizmat qiladi. Shunday qilib, Zulfiya mukofoti kabi tashabbuslar jamiyatdagi ijtimoiy, madaniy va ilmiy o‘zgarishlarning kiritilishi, yangi zamonning bilimdon va ma’rifatli ayollarini tayyorlashda muhim ahamiyatga ega. Bizning yurtimizda shunday mukofotlar yana ko’plab joriy etilishi kerak. Prezidentimiz ta’kidlaganidek: "Ayollarga ilm berish - jamiyatni ilqli, ma’rifatli va salohiyatli qilish", degan qoidani hayotga izchil tatbiq etishni taqozo etadi. Ayol ma’naviyatli, ma’rifatli bo’lsa, nafaqat o’zi, balki uning farzandlari ham ana shunday yetuk shaxs bo’ladi.

Foydalilanilgan adabiyotlar

1. I.A.Karimov. Yuksak ma’naviyat — yengilmas kuch. — T.: «Ma’naviyat», 2010. — 176 b.
2. Yangi O’zbekiston taraqqiyot strategiyasi. To’ldirilgan ikkinchi nashri. Toshkent: "O’zbekiston" nashriyoti, 2022. — 416 bet.
3. wikipedia.uz internet sayti